

Marvaridbonu Jumayeva Ziyodulla qizi

*Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi, Chorvachilik Va Biotexnologiyalar
Universiteti*

Annotatsiya: *Ma‘lumki, o‘simlik mahsulotlari tarkibida har xir hayotbaxsh vitaminlar, oqsil, karbon suvlar, ifor moylari, shuningdek, organizimning hayoti va faoliyati uchun juda zarur bo‘lgan ma‘danlar, tuzlar va boshqa muhim biologik faol moddalar mavjud. Bo‘yoqdor ro‘yan o‘simligi ha shunday o‘simliklar qatoriga kiradi.*

Kalit so‘zlar: *Xren, sinegrin glikozidi, Valkovskiy, Atlant, Suzdal.*



Yerqalampir xren (*Armoracia*) — karamdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik turi, sabzavot ekini. Yevrosiyoda 2 turi bor. Oddiy Yerqalampir (*A. rusticana*) — Yevropa, Hindiston, AQSH, Xitoy, O‘rta Osiyoda ekiladi (ildizida S vitamini, efir moylari, fitonsidlar bor). Iste‘mol uchun yo‘g‘on etli ildizpoyasi (ziravor sifatida) va bargi ishlatiladi. Tupi serbarg. Bargi yashil, cho‘ziq, to‘p-to‘p bo‘lib o‘sadi. Ildizi tuproqqa 80 —100 smgacha kirib boradi, ildiz poyasi esa tuproqning 30 smgacha bo‘lgan qismida joylashadi. Yerqalampir yuqori haroratga chidamli, namga talabchan o‘simlik.

Yerqalampir ildizi va bargida turli mineral tuzlar, vitaminlar va achchiq ta‘m beruvchi sinergii glikozidi mavjud. Undan oshqozon kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Yerqalampir o‘ziga xos o‘tkir hid va xushbo‘y ta‘mga ega. Oziq-ovqat sanoatida, turli mahsulotlarni (pomidor, bodring va boshqalarni) tuzlashda ishlatiladi. Valkovskiy, Atlant, Suzdal navlari ekiladi. O‘zbekistonda shaxsiy tomorqalarda, fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladi.

O'tloq Yerqalampiri (*A. sisymbrioides*) — yovvoyi holda uchraydi. Ildizi iste'mol qilinadi. Ushbu dorivor ne'matning tarkibida kaliy, kalsiy, natriy, fosfor, temir va boshqa minerallar mavjud. Shuningdek, V, S darmondorilari, askorbin kislota, fitonsidlar, efir moylari, shakar, kraxmal, uglevod, kletchatkalarga boyligi bilan ham ajralib turadi.

Barra barglari esa S, V, PP vitaminlari va karotinga mo'ligi bilan ayniqsa, foydalidir. Traxeit, bronxit, uzluksiz yo'talda: qirg'ichdan o'tkazilgan bir qoshiq yerqalampirni uch qoshiq asal bilan aralashtirib tindirilib, bir kunda 1 mahal 1 choy qoshiqdan iste'mol qilinsa juda yaxshi foyda beradi. Sistit va uretrit dardiga chalinganbemorlar uchun:qirg'ichdan o'tkazilgan losh qoshiq yerqalampirni 100 ml. Qaynoq suv bilan aralashtirilib,

5 daqiqa ustini yopib tindirib qo'yiladi va bir kunda 3-4 mahal ichiladi. Bo'g'im og'riqlarida quyidagi malham tavsiya qilinadi: yerqalampirning ildizi go'sht maydalagichdan o'tkazilib, unga teng miqdorda maydalagichdan chiqarilgan olma qo'shiladi. U yaxshilab aralashtirilib og'riq joyga malham sifatida kompress qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. V. Belolipov, X.Ch.Buriev, E.B.Juraev, R.Z.Murodov “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar genafondini saqlash, madaniylashtirish va tabobatda foydalanish”. Toshkent 2020-yil.
2. Agroximiya (Pod red. B. A. Yagodina). Moskva, 1982-yil.
3. Ahmedov O', Ergashev A, Abzalov A, Dorivor o'simliklar va ularni o'stirish texnologiyasi ToshDAU nashr taxririya bo'limi Toshkent 2009-yil.
4. Ahmedov O', Ergashev A, Abzalov A, Yo'lchiyeva M, Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi Toshkent –2009-yil.